

## O'ZBEK TILIDA OLMOSH SO'Z TURKUMINING PRAGMATIK TALQINI.

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand Davlat Universiteti

Filologiya fa'kulteti.

Lingvistika (o'zbek)yo'nalishi

dots: **O.S.Yusupova**

magistrant: **R.B.Eshaliyeva**

**Annotatsiya:** O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumi bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan, jumladan, lingvopragmatik jihatlarini ochib berish. Olmoshlarning pragmatik guruhlanishi, iltimos, ta'kid, maqtov, ma'nolarida hosil bo'lishi, umuman, nutqiy vaziyatda olmoshlarni talaffuzi, ohangi, ta'sir doirasi bo'yicha ish olib borish, shu bo'yicha tushuncha berish.

**Kalit so'zlar:** Olmosh, lingvopragmatika, so'z, nurq, jarayon, belgi, imo-ishora, adresat, tinglovchi, turkum, maqtov, buyruq, ohang, talaffuz, ishonch.

O'zbek tilida Olmosh (ichi bo'sh so'zlar) bo'lib, barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar, so'z birikmasi hamda gap o'rnida almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh turkumiga xos hisoblanadi. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi. Bajaradigan vazifasiga e'tibor beradigan bo'lsak, so'zlovchi fikriga qo'shimcha izoh berish imo ishora vazifasini o'taydi. Olmosh so'z turkumining yozilishi, imlosi qo'shimcha qo'shilishi bilan olmosh so'z turkumida ma'no ko'lamini kengayishi, yoki torayishi mumkin. Bu adresatning nutqiy muloqot jarayonida olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni ishlatishiga bog'liq.

Pragmatika (yun. pragmatos-ish harakat)- degan ma'noni bildirib keladi. G'arb mamlakatlarida birinchi bo'lib bu soha shakllana boshladi. Shakllanishi oqibatida yangi fan yuzaga keldi. Bu fanni ochib berishda o'zbek tilshunolaridan. X Mamatov, Sh Safarovlar katta hissasini qo'shdi. Pragmatika sohasida ish olib borish uchun gaplarning asl mohiyatini tushunib yetish zarur, shundan so'ng bu sohani ichiga kirib boramiz. Olmosh so'z turkumini pragmatik talqin qilib borar ekanmiz, avvalo, bu turkumning nutqiy vaziyatda qo'llaganimizdagi holati, jarayondagi voqealar holati, gapning mazmuni, impletit va ekstratetik holatini o'rganish va yoritish zarur. Pragmatikaning ichki talaffuz jarayoniga ko'ra qo'yidagi turlarga bo'lib o'rganamiz.



O'zbek tilida olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlari bu nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda adresat va adresant o'rtasida bo'lib o'tgan muloqot jarayonida amaliy qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, qolaversa, **geshtalt**ni "tushuncha" sini yuzaga chiqishida so'zlovchi eshitgan narsasini qanday tasavvur qilsa shunday anglashi har kimning tushunchasi turlicha ekanini pragmatika sohasida o'rganamiz.

- **lokutiv** (locutionary) akt bu ma'lum bir tovushni talaffuz qilish yoki ma'lum belgilar qo'yish, muayyan biror bir so'zlarni ishlatilish va ularni ma'lum bir his-tuyg'ularga muvofiq ishlatilish va ular olingan til qoidalariga ko'ra ma'lum bir murojaat qilish kabi nutq harakatidir. Bularga xabar, iltimos, kafolat, maqtov, xushomad, xafa bo'lish aktlari kiradi. Misol: Meni kechiring! Uzr so'rash bilan birga iltimoslik ohang bor bunda lokutiv akt mavjud.

**Illokutiv** akt (Illocutionary) Boshqa shaxsga nibatan aytish orqali niyatini va maqsadini ifoda etishdir. Bularga tasdiq, buyruq, talab, iltimos, va'da singari aktlarning barchasida illokutiv maqsad yotadi. Masalan: Meni kechiring. U qilgan ishidan pushaymon, afsuslanish akt bor.

- **Perlokutiv** (perlocutionary) akt ushbu jarayonda so'zlovchi tomonidan bayon qilingan nutqiy akt orqali paydo bo'lgan reaksiya holati nazarga tutiladi. Bunga buyruq, tanqid, ogohlantirish, ishontirish, majbur qildirish, hayron qoldirish, adashtirish aktlari mavjud. Misol: Meni kechiring. Kechirishga undash, buyruq ohangi yotadi. Bu nutqiy aktlarni, albatta, amaliyotda qo'llaniladi buni tushunish adresantga bog'liqdir. Shuning uchun pragmatikada, yuqorida sanab o'tgan turlar orqali olmosh so'z turkumini tahlil etamiz.

**Olmosh so'z turkumining "Lokutiv akt"-talaffuz jarayonida Maqtov akt-U kishining yaqin -yiroqdagilari o'ta muloyim, shirinsuxan ishi ohangdorlik xususiyati yuqori bo'lishi.**

- bilan yetti o'lchab bir kesadigan, uzoq o'ylab ish qiladigan ishbilarmon kishi sifatida bilishasi. (R Jabborov. Vatan ichra vatan. Toshkent 2010. 49-b) U kishilik olmoshi qatnashgan bo'lib, maqtov aktini yuzaga chiqarayapti.
- **Ta'kid**-So'ng mening otim To'laganboy ota desang ham bo'laveradi. (R Jabborov. Vatan ichra vatan. Toshkent 2010. 50-b) mening kishilik olmoshi qatnashgan bo'lib, -ning kelishik qo'shimchasi qo'shib, mening otim deb ta'kid ohangida so'zlayotgani sezilib turadi.

- **E'tirof**-Sizni deya o'ldi, Qodiriy bobom. (Abduvohid Suvonov. O'tinch. Toshkent. 2014.9-b) Siz kishilik olmoshi qatnashgan bo'lib,sizni deya o'ldi deb e'tirof etib kelmoqda.
- **Xushomad**-Sen yaralgansan oy jamolida.( Abduvohid Suvonov. O'tinch. Toshkent. 2014.18-b)Sen kishilik olmoshi orqali oy jamol kimga tegishligini anglatib kelmoqda.

### **Olmosh so'z turkumida "Illokutiv akt"-biror bir muloqot jarayonida boshqa shaxsga nisbatan niyatini yetkazish,maqsadini aytishdan iborat.**

- **Tasdiq**-Men qilgan tuhmatlar balosi bolalarimga o'rdi.Men hech narsa tushunmadim.(Ilhom Qahhorov)Bu gapda biz, men kishilik olmoshi orqali tasdiq ma'noni anglaymiz.Men qilgan tuhmatlar.
- **Talab**-Endi bu yog'i senga havola, o'zing ham ko'pni ko'rgan fozil inson,o'g'lingga ham yotig'I bilan tushuntirasan-degan umiddaman. (Samarqand adiblari. Toshkent. 2017. 110-b) O'zing-o'zlik olmoshi orqali tushuntirishni talab etayapti.O'zing qolgan gapni tushuntir degan maqsad yotibdi.
- **iltimos** - Ena, bas qiling, bu nima deganingiz, akamning oilasini buzmoqchimisiz. (Ijod ko'ngil taskini. Toshkent. 2015. 101-b)Bu gap orqali "bu" ko'rsatish olmoshi qatnashgan bo'lib,enasining oldingi gapiga ishora qilib kelmoqda.U nima deganingiz-deya iltimos qilish maqsadi, sezilib turadi

### **"Perlokutiv akt" ning olmosh so'z turkumida qo'llanganda ko'pincha ta'sir kuchi doirasini kengligi bilan farq qiladi.**

- 16.**Do'q-po'pisa** - Senlarga onadan ham xotin aziz bo'пти-da! (Ijod- ko'ngil taskini. Toshkent. 20115.101-b.) Bu gapimiz nutq jarayonida senlar kishilik olmoshini qatnashishi bilan do'q-po'pisa ta'sirini sezamiz. Bu lingvoptagmatikaning perlokutiv aktga misoldir.
- 17.**Buyurish ohangi** - Siz ham gapirib o'tiring mundoq, Alomatxon.(Adabiyot darsligi .9-sinf,Toshkent.2019.)Siz kishilik olmoshi qatnashgan bo'lib II.shaxs ko'plikda qo'llaniladi,ammo bu gapda "siz" olmoshi hurmat ma'nosini ham anglatib kelayapti,balki buyurish ohangi ham sezilayapti.
- 18.**Yolvorish** - Tog'a! iltimos, siz u kishidan xafa bo'lmang! (Ijod- ko'ngil taskini. Toshkent. 2015. 91-b)Bu gapda siz olmoshi ishtirok etgan bo'lib yolvorib siz xafa bo'lmang-deya,aytib o'tayapti. Hurmat ma'nosini ham berib kelmoqda.



**Ogohlantirish** –Hech kim mehnatdan o‘lmaydi. (Adabiyot darsligi. 9-sinf. Toshkent.2019. 286-b) Hech kim bo‘lishsizlik olmoshi qatnashgan bo‘lib, mehnatdan hech kim o‘lmasligini ta’kidlab, ogohlantirib kelyapti.

Shunday qilib olmoshlar pragmatik xususiyatini nutqiy jarayon ostida amalga oshiradi.Bu esa adresatning tushunchasiga mos ravishda ifoda etish va ifodalanishiga bog‘liq.

Olmoshlarning,umuman, atash ma'nosiga ega bo‘lmaganligi sababli "Ichi bo‘sh so‘zlar" deb ataladi. Olmoshlar ma'nosiga ko‘ra quyidagi yetti guruhga bo‘linadi: Kishilik olmoshi, o‘zlik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, so‘roq olmoshi, belgilash olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi singari turlari mavjud.Bularning har birining pragmatikasi mavjud.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki,O‘zbek tilida olmoshning imloviy yozilishi,yasalishi bu nutqiy jarayonda amalga oshadi.Bu esa badiiy adabiyotda olmoshning qo‘llanilishi badiiy estitika va imotsiya bag‘ishlab keladi hamda ta’kid,kuchaytirish ma’nolarini ham ifodalab keladi.Olmosh boshqa so‘z turkumi o‘rnida almashinib keladi.Bunda esa olmosh ifodalaydigan turli xildagi ma'nolar matn ichidan anglashilib turadi. Olmoshni nutq jarayonida qo‘llar ekanmiz olmoshning yasalishiga, imloviy yozilishiga katta ahamiyat berib boramiz,olmoshning so‘z orttirilishi va qisqargan shakllari tilshunosligimizni so‘z boyligiga ega ekanligi,yozilganda o‘zgarishlar,so‘zning imo-ishoraviy jihatlarini o‘rganilib borilmoqda.Inson nutqini shakllanishi uning fe’l atvoridan kelib chiqqani holda o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.HojiyevH. Kishilik olmoshi va hurmat ma’nosi//O‘zbek tili va adabiyoti.Toshkent.2000.
- 2.Hamroyev M.Hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari.Toshkent.2009.
3. Yusupova O.O‘zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari. Samarqand.2007.
4. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, - 391 b.
5. Jamolxonov H.A. (2004). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanmasi. 1-qism. -T: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi.
6. Tursunov U.M, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. (19920. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3- nashri. - T.: "O‘zbekiston".



7. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. "O'qituvchi", Toshkent. (1980).

